

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING QOFIYA VA RADIF QO'LLASHDAGI MAHORATI

Quvvatova Nigina Sirojiddin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

niginaquvvatova1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Zahiriddin Muhammad Boburning g'azallarida radiflardan unumli foydalangan. Qofiya va radifni bir-biriga mutanosib qo'llab, g'azallaridagi jozibadorlikni yuqori pog'onaga chiqara olgan. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning qofiya turlarini qo'llashdagi mahoratini, qofiyaning qaysi turi shoир ijodida ko'proq qo'llanganligi tahlil qilindi. Bundan tashqari radifning shoир ijodida tutgan o'rnnini ham ko'rib o'tildi. Shu jarayonda qofiya va radifga doir nazariy ma'lumotlar ham berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Yig'iq va yoyiq radif, muraddaf qofiyali g'azallar, qofiyaning turlari: asliy, ma'mulyi, shoygon; mutlaq, muqayyad; mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad.

АННОТАЦИЯ

Захиридин Мухаммад эффективно использовал радиры в газелях Бабура. Ему удалось усилить привлекательность своих газелей, сбалансированно используя рифму и радиф. В статье анализируется мастерство Захириддина Мухаммада Бабура в использовании видов рифмовки и какой вид рифмы чаще всего использовался в творчестве поэта. Кроме того, была рассмотрена роль радифа в творчестве поэта. В ходе этого процесса также предоставлялась теоретическая информация о рифме и радифе.

Ключевые слова: газели со слитной и непрерывной рифмой, рифма мураддаф, виды рифмы: асли, маъмули, шойган; абсолютный, определенный; муджарад, учреждение, мурдаф, мукаяд.

ABSTRACT

Zahiriddin Muhammad Babur used radifs effectively in his ghazals. He was able to use rhyme and radif in proportion to each other, raising the attractiveness of his ghazals to a high level. The article analyzes Zahiriddin Muhammad Babur's skill in using rhyme types, which type of rhyme was used most often in the poet's work. In addition, the place of radif in the poet's work was also examined. In this process, theoretical information about rhyme and radif was also provided.

Key words: Ghazals with radif, muraddaf rhyme, types of rhyme: asliy, ma'muliy, shoygan; mutlaq, muqayyad; mujarrad, mausas, murdaf, muqayyad.

KIRISH

Boburiylar davri hukmdorlaridan biri hamda beqiyos shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining buyuk va benazir shaxslaridan biri bo'lgan. Boburga shoh va shoir degan ta'rifning o'zi kamlik qiladi. U, o'z navbatida, adabiyotshunos olim va tarjimon ham edi. Shoh sifatida Hindistonda 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasiga asos solgan bo'lsa, tarjimon sifatida Xoja Ahrorning "Voldiya" asarini tarjima qilg'an. Adabiyotshunoslilikka, xususan, aruz ilmiga bag'ishlangan "Muxtasar" asarini yaratganki, uni olim deyishga to'la haqlimiz. Bobur haqida gap ketar ekan, uning dilbar shoir ekanligiga, takrorlanmas quyma satrlar bitganligiga, yozgan g'azallar-u ruboiylarida hayot haqiqatlarini aks ettirganligiga to'xtalmasdan ilojimiz yoq. Bobur shunday she'riy asarlar yozganki, o'qiguvchi shoir shaxsiga tasannolar aytadi. Ha, Bobur o'z ijodi bilan ana shunday daraja hosil qila olgan ijodkor edi. Ayniqsa, g'azallarini mutolaa qilar ekanmiz, shoirning so'z qo'llash, badiiy tasvir vositalaridan unumli va o'rinni foydalanish, bundan tashqari qofiya va radif qo'llash mahoratiga qoyil qolamiz.

Ko'rishimiz mumkinki, qofiya va radifning she'riy asarlarda qo'llanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mumtoz adabiyotda qofiya va radif hamda ularning g'azallarda qo'llanish o'rni, bundan tashqari qofiya turlari ko'plab olimlar tomonidan yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ishimizda mazkur masalaga muxtasar o'z fikr-mulohazalarimiz bilan yondashishni hamda ushbu fikr-mulohazalarni Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub g'azallarni tahlil qilish orqali dalillab borishni lozim topdik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boburiylar sulolasining buyuk vakili Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh bo'lish bilan birga shoir, yirik adabiyotshunos va tarixchi olim ham bo'lgan. Bobur devonidagi she'rlarning asosiy qismini g'azal va ruboiy tashkil qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur yashab ijod qilg'an davrda g'azal va ruboiy nafaqat o'zbek balki, Sharq adabiyotida yetakchi janrga aylang'an edi. G'azalning tasvir imkoniyatlari nihoyatda boy bo'lib, unda har qanday his-tuyg'u, mushohada fikrni ifodalash qulay edi.

Mumtoz adabiyotda she'riy asarlar, ko'pincha, qofiya asosiga qurilishi va juda ko'p hollarda qofiyaning radif bilan qo'llanilishi kuzatilgan. Radif arabchada "ketma-ket" keladigan ma'nosini ifodalab, adabiyotshunoslilikda qofiyadan so'ng kelib, aynan takrorlanuvchi so'z birikmasini anglatadi. Radiflar she'rda ifodalananayotgan asosiy

g‘oyani ta’kidlash, o‘quvchi e’tiborini badiiy asarda ifodalanilishi lozim bo‘lgan asosiy g‘oyaga jalb etib, ijodkor g‘oya va maqsadlarini kitobxonga yanada ravshanroq yetkazib berishga xizmat qiladi.

Radiflarning joylashish o‘rniga e’tibor qaratsak, ular ikki yoki undan ortiq holda kelishi mumkin. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizda shunday baytlar borki, ular faqat qofiya va radifdangina iborat bo‘lganlari ham uchraydi. Adabiyotshunoslikda radif qo‘llangan g‘azallar muraddaf g‘azal nomi bilan yuritiladi.

Radif bayt misralari oxiridagi takrorlanuvchi so‘z bo‘lib, ohangdoshlikni ta’minlab beruvchi asosiy unsurdir. Biz ushbu maqolamizda Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarida qofiya va radif qollashdag‘i mahoratini korib chiqamiz. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida radifli va radifsiz g‘azallar miqdori deyarli teng. Iste’dodli ijodkor har ikkala usulda ham birdek betakror namunalar yarata olish mumkinligini g‘azallari misolida ko‘rsatib bera olgan.

Muraddaf qofiyali g‘azallarda ta’kid va murojaat ma’nosи kuchliroq bo‘lib, bu g‘azalning badiiy qimmatini oshirgan. Mirzo Bobur g‘azallarida, asosan, bir so‘zdan iborat bo‘lgan radiflardan foydalangan. Misol qilib,

O‘zni, kongul, aysh bilan tutmoq kerak,

Bizni unutqonni unutmoq kerak.

Yoki,

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,

Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

kabi baytlar bilan boshlanuvchi g‘azallarini ko‘rsatishimiz mumkin.

Ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topgan radiflarni shoir g‘azallarida kam uchratamiz.

Ko ‘zumda muttasil ul egma qosh kerak bo ‘lsa,

Qoshimda ko ‘z yorug‘i ul quyosh kerak bo ‘lsa.

deb boshlanuvchi g‘azalida radif ikki so‘zdan iborat radif qo‘llangan.

Shohi Sulton Uvays ban Mahmud.

Mohi Sulton Uvays ban Mahmud.

deb boshlanuvchi g‘azalida esa radif to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan.Ushbu turdagи ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan radiflar yoyiq radif sanaladi.

Radif g‘azallarga o‘zgacha ohang va musiqiylik beradi. Asarning o‘qishliligini ta’minlaydi. Radiflar she’rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni ta’kidlash, o‘quvchi e’tiborini asosiy g‘oyaga jalb etib shoir g‘oyaviy niyatini o‘quvchiga yaxshiroq yetkazib beruvchi vositalardan hisoblanadi.

Masalan, Mirzo Boburning

Kim ko ‘ribdur, ey kongul, ahli jahondan yaxshilig‘,

Kimki andin yaxshi yo ‘q, ko ‘z tutma andin yaxshilig‘.

*Gar zamonni nayf qilsam ayb qilma, ey rafiq,
Ko ‘rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig‘!*

deb boshlanuvchi g‘azalida “yaxshilig“ radifi takrorlanib, yaxshilikni ulug‘lash ta’kidlanib boradi.

*Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo ‘ldi?
Ul lutfila ehson qani, ey yor, ne bo ‘ldi?*

*Kettim meni hayron eshicingdin demading hech,
Ul telbayi hayron qani, ey yor, ne bo ‘ldi?
Yuz ko ‘rsatibon el ichida lutf etar erding,
Ul lutfi namoyon qani, ey yor, ne bo ‘ldi?*

Ushbu g‘azalda ham radif bir necha so‘zdan tashkil topgan va ritorik so‘roq gapda murojaat ma’nosini ifodalagan. Oshiqning mashuqasidan o‘pkalanishi, va’dasiga vafo qilmagan yordan yozg‘irishi, shikoyatlari radif orqali ochib berilgan.

*Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkildur,
Sening birla chiqishmoqliq dog‘i bisyor, mushkildur.*

Ushbu g‘azalda ham radif orqali asosiy ma’noni ilg‘ash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki oshiqning mashuqasiga erishish yolidagi qiyinchiliklari, azob-uqubat chekishi, “mushkul” ekanligi ta’kidlangan. Turkiy adabiyotda g‘azalning shunday turi ham borki, unda qofiya ishtirok etmaydi. Bunday g‘azallarda butun she‘r “yuki” radifga tushadi. Ohangdorlik radif orqali ifodalanadi. Bu kabi g‘azallar adabiyotshunoslikda harora g‘azallar nomi bilan yuritiladi. Jahon Otin Uvaysiy ijodida harora g‘azal namunalari uchraydi.

Bundan tashqari Zahiriddin Muhammad Bobur badiiyatning asosiy qirralaridan biri bolgan qofiya qo‘llashda ham yetarlicha mahoratga ega bo‘lgan shahs hisoblanadi. Shoир she’rlarining qofiyasi ma’naviy teranligi, ohangdorligi bilan boshqalar ijodidan ajralib turadi. Quyida Mirzo Bobur g‘azallarini qofiya turlari boyicha tahlil qilib, shoир she’rlarida qofiya qo‘llash mahoratini ochib berishga harakat qilamiz.

Qofiyaning dastlabki turi qofiyadosh so‘zlar tarkibida so‘z va grammatick shakllarning ishtirokiga ko‘ra asliy, ma’muliy va shoygon qofiya turidir. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida, asosan, asliy qofiya turiga murojaat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Asliy qofiya qofiyadosh so‘zlar asl asosdan tashkil topishi talab qilinadi: qon-rayhon-parishon shaklida. Asliy qofiyada raviy ham qofiyadosh

so‘zning asosida joylashadi: vafo-jafo, furqat-mashaqqat, dildor-bezor, muhtaram-alam kabi so‘zlari asliy qofiya sanaladi.

*Xurshid yuzung birla bu kun, ey mahi tobon,
Davo gar etar bolg‘usi kun, so‘ngra pushaymon.*

Baytdagi tobon-pushaymon qofiyadosh so‘zlar asl asosdan tashkil topgan, “nun” harfi raviy sifatida qofiya ohangdorligini ta’minlab bergan.

*Charxning men ko‘rmagan javr-u jafosi qoldimu?!
Xasta ko‘nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?!*

Baytdagi jafosi-balosi qofiyadosh so‘zlardagi qofiyadoshlik asoslarning o‘zida sodir bo‘lgan. Ya’ni jafo-balo so‘zlari asl kalima sifatida o‘zaro qofiyadoshlikni yuzaga keltira olgan. “alif” harfi raviy sifatida qofiyadoshlikni ta’minlab bergan.

Shoir ijodida ma’muliy qofiya turining ham qo‘llanganligini uchratishimiz mumkin. Qofiyai ma’muliyni qofiyai asliy bilan o‘zaro qiyosiy izohlanganda, farqli jihatlari ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham barcha risolalarda bu ikki qofiya taqqoslab tushuntirilgan. Qofiyai ma’muliyda qofiyadosh so‘zlar tarkiban asos holida bo‘lmay, ajrala oladi. Ya’ni qofiyadosh so‘zlarning asoslari emas, qo’shilgan shakllar ohangdorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Raviy asl kalimada emas, unga qo’shilgan shakllardan tanlanadi. Rost – paydost so‘zlari o‘zaro qofiyadosh so‘zlar sanalsa, “te” harfi raviy sanaladi. So‘zlar tarkibiga e’tibor qilinsa, rost so‘zidagi “te” asosda (asliy qofiya), paydost so‘zidagi “te” esa qo’shilgan “ast” shaklidan olinib, bu so‘zlar qofiyadosh so‘z sifatida taqdim qilingan. Rost va paydo so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘la olmaydi. Bu qofiyadoshlik rost so‘zidagi “te” (qofiyai asliy), paydost so‘zidagi “te” (qofiyai ma’muliy) orqali amalga oshirilgan. Yoki pordam – afshordam so‘zlaridagi pordam (qofiyai asliy) va afshordam (qofiyai ma’muliy) so‘zlarida ham ayni xususiyat ko‘zga tashlanadi. Mirzo Bobur g‘azallarida ham bunday holatlarni kuzatishimiz mumkin.

*Ochilib ikki sochi, yuziga yoyilmishlar,
Yoruq jahonni ko‘zumga qorong‘u qilmishlar.*

Baytdagi yoyilmishlar-qilmishlar so‘zlari qofiyani tashkil qiladi. Bunda “lom” harfi raviy sanaladi. So‘zlar tarkibiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, yoyilmishlar so‘zidagi “lom” -il qo‘srimchasidan olingan bo‘lib, ma’muliy qofiyani yuzaga keltirgan. Ikkinchi qofiyadagi qilmishlar so‘zida esa raviy asos tarkibida hosil bo‘lib, asliy qofiya turiga misol bo‘lgan. Shu tariqa bu ikki so‘z qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan.

*Ul parivash tig‘idin qo‘rqutma meni, ey raqib,
Ishqida boshimg‘a mening har ne kelsa, yo nasib.*

*Evrulub boshingg‘a, ey oy, qilmisham tarki vatan,
Rahm qilg‘il mangakim, sargashtadurmen, ham g‘arib.
Telba bo lmoqlig‘din o‘zga choraye yo‘qdur manga,
Ul pariro‘ nogahon ar chiqsa, uydin yosanib.*

Ushbu baytlardagi raqib-nasib-g‘arib-yosanib so‘lari qofiyadoshlikni hosil qilgan bo‘lib, shulardan “be” harfi raviy bo‘lib kelgan. Shulardan raqib-nasib-g‘arib so‘zlarida raviy asos tarkibida kelgan bo‘lib, asliy qofiya turini, yosanib so‘zida esa -ib qo‘shimchasi tarkibidagi kelib, ma’muliy qofiya turini yuzaga keltirgan.

Aslida bu kabi holatlar qofiyadagi nuqsonlar sifatida taqdim qilinadi. Biroq Ahmad Taroziy birgina holatda g‘azalda ma’muliy qofiyaning qo‘llanishiga ruxsat borligini aytadi. Ba’zan shakl mazmunga daxl qiladi. Berilayotgan mazmunga asliy qofiya topilmasa, ma’noni zoye ketkazmaslik maqsadi bilan g‘azalda ham ma’muliy qofiyani qo‘llashga ijozat berilgan.

Shuningdek, qofiyashunoslar raviyning mutaharrik va sokin holda kelishiga qarab qofiyaning mutlaq va muqayyad turini farqlaydilar. Biroq shuni alohida takidlash kerakki, hech bir risolada qofiya mutlaq qofiya va muqayyad qofiya turlari sifatida izohlanmaydi. Qofiyaning bu turi raviy harfi izohida raviyi mutlaq va raviyi muqayyad shaklida beriladi.

Agar raviy mutaharrik bolsa, raviy mutlaq deyiladi. Zahiriddin Muhammad Bubur ijodida ushbu turga misollar ko‘rishimiz mumkin.

*Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbatni,
Sher bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.*

Baytdagi suhbat-kayfiyati qofiyadosh so‘zlardagi “to” undoshi raviy, “yo” - i unlisi vasl sifatida raviyi mutlaqni yuzaga keltiradi.

*Qaro zulfin firoqida parishon rozg‘orim bor,
Yuzungnung ishtiyoqida ne sabr-u ne qarorim bor.*

Ro‘zg‘orim-qarorim qofiyadoah so‘zidagi “re” undoshi raviy va raviydan keyingi harakat va vaslning joylashuvi raviyi mutlaq sanaladi. Bundan tashqari Shamsiddin Qays Roziy raviyi mutlaqning 12 turi mavjudligini sanab o‘tgan. Mirzo Bobur ijodini kuzatar ekanmiz, she’rlarida ushbu turlarga ham misollar topishimiz mumkin.

Muqayyad qofiya-raviyi muqayyad. Arab va jam shoirlari orasida raviyi muqayyad raviyi mutlaqqa nisbatan kamroq qo‘llangan. Raviyning muqayyad shaklida qofiyadosh so‘z raviy bilan tugallanadi, ya’ni raviydan keyin qofiya harf va harakatlari ishtirok etmaydi. Risolalarda raviyi muqayyadning uch turi keltiriladi:

1.Mujarradi muqayyad raviy.

Ishq elining ohidin ul sarv qad xam bo‘lmasun,

G‘am yelidin ul muanbar zulf darham bo lmasun.

Baytdagi xam-darham so‘zлari qofiyadosh so‘zлar sifatida keltiriladi. So‘z tarkibidagi “mim” raviy, raviydan oldingi unli tavjih sanaladi.

2. Ridfli muqayyad raviy.

Telba ko ‘nglumkim, sening changingdadur, yod aylag‘il,

Ushbu misradagi “dol” raviy, raviydan oldingi “alif” esa ridfi asliydir.

Ridfli muqayyad raviyning ridfi zoyid turi Mirzo Bobur g‘azallarida deyarli uchramaydi.

3.Qaydli muqayyad raviy.

Qo ‘y, ey oqil, nasihat so ‘zlarinkim, dilpisand ermas,

Mening devona ko ‘nglumga nasihat sudmand ermas.

Ushbu baytdagi dilpisand-sudmand so‘zлari qofiyani tashlik etgan bo‘lib, qofiyalar tarkibidagi “dol” harfi raviy, “nun” harfi esa qayddir.

Abdurahmon Jomiy ham “Risolai qofiya” da raviy harfi sokin bo‘lsa, vasl unga payvasta bo‘lmasa, bunday qofiyani muqayyad qofiya deb nomlashlariga ishora qiladi. Sarvar-dilbar qofiyadosh so‘zлar tarkibidagi raviy (“re” harfi) sokin.

Qofiyaning yana shunday turi borki, ushbu tur qofiya harflarining ishtirok etishiga ko‘ra farqlanadi. Qofiya harflarining joylashuvi qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra turlarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Qofiyadan oldin joylashuvchi ridf, ta’sis, qayd — qofiya harflari qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad turlarini hosil qiladi. Arabiy, forsiy va turkiy tildagi risolalarning hech birida mujarrad, muassas, murdaf, muqayyad qofiya turlari alohida sarlavha ostida keltirilmaydi. Bu qofiya turlari qofiya harflari izohi qismida keltiriladi. Faqat Nosiriddin Tursiyning “Me’yor ul-ash’or” asaridagina “Qofiya na’vlari” sarlavhasi ostida qofiyaning barcha turlari arab va fors shoirlari ijodi misolida o‘zaro qiyosiy o‘rganiladi. Quyida biz qofiyaning ushbu turlarini Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida qo‘llanish darajasini o‘rganib chiqamiz.

1.Muassas qofiya. Qofiyaning muassas qofiya turi ta’sis harfi izohi bilan bog‘liq. Ta’sisning ishtiroki muassas qofiya turini hosil qiladi. Muassas qofiya turi dastlab Nosiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” asarida keltiriladi.

Ey ruyi tu oftobi olam,

Angushtnamoyi nasli odam.

Baytdagi olam - odam qofiyadosh so‘zlaridagi “alif” harfi ta’sis, tabiiyki, ta’sis daxil harfi bilan birga keladi. Demak, “lom” va “dol” harflari daxil sanaladi. Barcha baytlarda ta’sis — “alif” harfining kelishiga to‘liq rioya qilinishi muassas qofiya turini yuzaga keltiradi.

Ey on ki lof mezaniy az dil, ki oshiq ast.

To 'b lak, ar zaboni tu bo dil muvofiq ast.

Oshiq — muvofiq qofiyadosh so'zlardagi o unlisi — ta'sis harfi sanaladi.

Qofiyaning ushbu turi Mirzo Bobur ijodida ham uchraydi:

Ne fikrekim, sening fikring emas - ul fikr erur botil,

Ne umrekim, o 'tar sensiz-erur ul umr behosil!

Baytdagi botil - behosil qofiyadosh so'zlaridagi "alif" harfi ta'sis, tabiiyki, ta'sis daxil harfi bilan birga keladi. Demak, "to" va "sin" harflari daxil sanaladi. Barcha baytlarda ta'sis — "alif" harfining kelishiga to'liq rioya qilinishi muassas qofiya turini yuzaga keltirgan.

2. Murdaf qofiya. Murdaf qofiya turi ridf harfining ishtiroki bilan bog'liq. Murdaf qofiya turi barcha risolalarda ridf harfi izohida keltiriladi. Shamsiddin Qays Roziy murdaf qofiyaning ridfi asliy va ridfi zoyidga asoslangan turlarini alohida izohlaydi.

Shabi oshiqat Laylatulqadrast.

Chun tu biyrun kuni rux az jalbob.

Jalibob so'zidagi "bo" harfi raviy sifatida belg'ilanib, raviydan oldingi "alif" — o unlisi ridfi asliy sanaladi.

Guli sad bark-u mushk-u anbar-u sib

Yosamin safid-u mavrid bazib.

Iyn hama yaksaa tamom shudast,

Nazdi tu, ey bute, malukfirib.

Ridfi asliy sifatida "alif", "yo" va "vov" harflari cho'ziq unli vazifasini bajargan holatda kela oladi. Shamsiddin Qays Roziy yuqoridagi baytda "yo" harfining (i unlisi) ridfi asliy sifatida holati va uning murdaf qofiyani shakllantirishga namuna sifatida keltiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham murdaf qofiyaning ridfi asliy turiga misollar uchraydi:

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,

Mendek senga bor zori vafodor topilmas.

Jafokor-vafodor so'zlaridagi "re" harfi raviy sifatida belgilanib, raviydan oldingi "alif" — o unlisi ridfi asliyni hosil qilyapti.

Vohid Tabriziy ridfi asliy bilan ifodalangan so'zlarni murdaf qofiya nomi bilan keltiradi. Biroq ridfi zoyid asosidagi qofiyadosh so'zlarga nisbatan murdaf qofiya atamasini qo'llamaydi. Shunchaki ularni "ridfi asliy va ridfi zoyidning ishtirok etishi" nomi bilan keltiradi: dasht — kasht; boxtastamash — soxtastamash.

3. Muqayyad qofiya. Qayd harfi ishtirok etgan so'zlearning qofiyalanishi muqayyad qofiya turini hosil qiladi. Qayd raviydan oldin joylashadi. Raviy va qayd

o‘rtasida biror harfning kelishiga ruxsat etilmaydi. Qayd sokin holatda bo‘ladi. Shuning uchun ham Ahmad Taroziy qaydni “sokinu-l-qayd” deb ataydi.

*Soldi o‘sruk ko‘zunguz tavbau taqvog‘a shikast,
Bo‘ldi olam yuzunguz davrida shurshidparast.*

Bu qofiya turini murdaf qofiya (ridfi zoyidli) bilan farqlash lozim. Ridfi zoyid ridfi asliy bilan birga ishtirok etadi, ridfi zoyid ridfi asliy va raviy o‘rtasida kela oladi: rost — kost kabi. Muqayyad qofiyada esa qayddan oldingi harf mutaharrik bo‘ladi: aqd—naqd, firdavs—qavs kabi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida muqayyad qofiya turi nisbatan kam uchraydi:

*Qo‘y, ey oqil, nasihat so‘zlarinkim, dilpisand ermas,
Mening devona ko‘nglumga nasihat sudmand ermas.*

Ushbu baytda “dol” raviyni, raviydan oldin kelgan “nun” harfi esa qaydni tashkil qilib muqayyad qofiya turiga misol bo‘lgan.

4.Mujarrad qofiya. Mujarrad qofiya raviydan oldingi qofiya harakatlarining kelishiga asoslanadi. Raviydan oldingi tavjihning kelishi mujarrad qofiya turini hosil qiladi. Bunda daxilning harakati ishbo bilan tavjihni farqlash muhim ahamiyatga ega. Ishbo daxilning harakati bo‘lib, daxil ta’sis harfi bilan yonma-yon holatda yuradi: mohir — Tohir kabi. Mujarrad qofiya turida esa daxil va ta’sis ishtirok etmaydi: shakar — zahar so‘zleri kabi. Mujarrad qofiya turi Nosiriddin Tusiy va Vohid Tabriziy risolalardagina izohlanadi.

Nosiriddin Tusiy risolaning “Fors shoirlari nazdida qofiya na’vlari” sarlavhali qismda ham mujarrad qofiyaning mutlaq va muqayyad qofiya bilan bir butunlikdagi 8 ko‘rinishini farqlab beradi. Ulardan to‘rttasi mutlaq qofiya shaklida, to‘rttasi esa muqayyad qofiya shaklida keladi.

Abdurahmon Jomiy mutlaq va muqayyad raviy izohida mujarrad qofiya turiga murojaat qiladi. Olimning fikriga ko‘ra ridf va qayddan xoli qofiya turi mujarrad qofiya sifatida keltiriladi. “Va muqayyad raviykim, qofiya tarkibida undan boshqa harf bo‘lmasa, uni mujarradli muqayyad derlar, sarvar va dilbar kabi. Agar boshqa harf mavjud bo‘lsa, ushbu harfga qarab ridfli yoki qaydli muqayyad deb atarlar”.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida mujarrad qofiyaning ham mutlaq, ham muqayyad qofiya turlari bilan birga qo‘llanish turlari uchraydi. Mutlaqi mujarrad qofiya turiga ushbu bayt bilan boshlanuvchi g‘azalini misol qilib keltirsak bo‘ladi:

*Boshda gar yo‘qtur jalolat gavharidin afsare,
Yonima basdur mazallat tufrog‘idin bistare.*

Baytdagi afsare-bistare qofiyadosh so‘zlar tavjeh (“se” va “to” ning harakati) ishtiroki asosida mujarrad qofiyani hosil qilgan bo‘lsa, vaslning ishtiroki mutlaq qofiya turini shakllantirgan.

*Zuhd ketti esa, karam qildi,
Ishq keldi-yu, muhtaram qildi.*

Mirzo Bobur qalamiga mansub bo‘lgan ushbu g‘azalda qofiyaning muqayyadi mujarrad turi qo‘llangan.

Tahlillarimizdan ko‘rinib turibdiki, Zahiriddin Muhammad Bobur qofiyaning deyarli barcha turlarida ijod qilgan. Bu kabi rang-baranglikda ijod qilish uchun shoirdan yuksak iste’dod va malaka talab qilingan. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, she’rlarida qofiya va radif qo‘llashdagi yuksak mahoratiga guvoh bo‘lamiz. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z ijodida qofiya va radifdan unumli foydalaniib, ularning o‘rni muhim va dolzarbligini yana bir bor isbotlab berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

XULOSA

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi turli rang-barangliklarga ega ekanligini yuqoridagi tahlillarimizdan ham bilib olishimiz mumkin.

Tahlil qilingan g‘azallardan ko‘rinadiki, shoir ijodida, asosan, qisqa radifdan foydalangan va qo‘llanilgan radif g‘azal mazmunini ochib berishga hamda ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari shoir ijodida, asosan, asliy qofiyadan foydalangan. Shoir bunday g‘azallar yozishi uchun, avvalo, qofiya ilmini chuqr egallagan bolishi kerak. Egallagan ilmi asosida mazmun jihatidan g‘oyatda g‘ozal bolg‘an g‘azal yaratish uchun esa nozik did, yuksak mahorat talab etiladi. Bobur ana shu ikki xususiyatni ozida jamlay olgan buyuk istedod sohibi edi. Shuning uchun uning yaratgan asarlari necha asrlar otsa ham oz malohatini yoqotmay, vaqt sinoviga bardosh berib kelyapti. Hali uning yaratgan asarlari, yozgan g‘azallari-yu ruboilylari koplab she’riyat shaydolarini maftun etib, boqiy yashaydi.

REFERENCES

1. Рустамов А. Кофия нима? – Тошкент: Фан, 1976. Рустамов А. Кофия нима? – Тошкент: Фан, 1976.
2. Рустамов А. Кофия структурасига оид бир “назария” хақида. Ўзбек тили ва адабиёти. № 3, 1976.
3. Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтика асослари. Дарслик. -Т.: Академнашр. 2021
4. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Ta’lim-media, 2019. –B. 183.

5. Ҳамроева О.Ж. Мумтоз қофиянинг назарий асослари. Ўқув қўлланма. -Т.: BOOKPRINT, 2022. -Б. 280.
6. Ҳамроева О.Ж. Абдураҳмон Жомий “Рисолаи қофия” асарининг таркибий тузилиши// “Илм сарчашмалари” журнали. 2020 йил. № 1. -Б. 151-157.
7. Ҳамроева О.Ж. Тумурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили филол: фан. докт. ... дисс. – Т., 2022. –265 б.
8. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.
9. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.
10. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006. – 288 б.
11. Бекмирзаева Х. Бобур шеъриятида поэтик образ. – Тошкент: Мухаррир, 2013. -103 б.
12. Фитрат. Аруз ҳақида: Адабиёт муаллимлари ва илм толиблари учун / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев.-Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
13. Захириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. —Т.: “Sharq”, 2014. - Б.744.